

Yo'l-transport tizimiga oid loyihalar taqdimoti o'tkazildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida yo'l-transport tizimini yaxshilash va yangi yo'llar qurishga oid loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Poytaxtimizda transport vositalari soni ortib bormoqda. Ayrim ko'chalardagi yo'nalishlar, yo'l harakati belgilari qatnovga noqulaylik tug'dirmoqda. Shu sababli yirik ko'chalar va chorralarda tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

Ushbu muammoni bartaraf etish, haydovchi va yo'lovchilarga qulayliklarni oshirish maqsadida muhandislik yechimlari ishlab chiqilgan. Xususan, Mirzo Ulug'bek tumani hududidagi Parkent ko'chasi va Kichik halqa yo'lini Mustaqillik shoh ko'chasi bilan bog'laydigan yangi yo'nalish ochish rejalashtirilgan.

Taqdimotda davlatimiz rahbari Transport vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda Toshkent shahar hokimligiga tirbandliklar yuzaga kelayotgan o'ndan ortiq ko'chada qisqa muddatlarda qo'shimcha harakat yo'nalishlarini ochish bo'yicha topshiriq berdi.

